
“HAR MASKANGA 1000 KITOB” aksiyasiga start berildi

Bugun Buvayda tumanida Sektor rahbarlari tashabbusi bilan Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, maktablar kitob fondini ko'paytirish, ota-onalar tomonidan farzandlarining ilm olishlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida Tumandagi barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida “HAR MASKANGA 1000 KITOB” aksiyasi boshlandi. Aksiya doirasida o'quvchilarning ota-onalari ta'lim tashkilotlariga tashrif buyurib, bu yerda o'tkazilayotgan kitob yarmarkalari bilan yaqindan tanishdilar hamda farzandlariga ularning qiziqishlari doirasida kitoblar sovg'a qilishdi.

Mazkur aksiya doirasida maktablardagi kitob fondiga 60 mingdan ortik qo'shimcha kitoblar olish rejalashtirilgan.

(Mazkur aksiya 13 oktyabr kuniga qadar davom etadi)

2023-10-10 20:58:21